

QO'QON VOHASI AHOLISI SALOMATLIGIGA IQLIM O 'ZGARISHINING TA'SIRI

F.S. Meliboyeva -Qo'qon davlat universiteti, Geografiya va iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi, g.f.f.d. (PhD),

B.D.Raxmonaliyev- Qo'qon davlat universiteti, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi va uning aholi salomatligiga ta'siri hamda respublikamizda mazkur muammolarni hal qilish uchun olib borilayotgan isloxo'tlar, respublikada kasalliklarning hududlar bo'yicha tarqalishini oldini olish va unga qarshi kurashish chora tadbirlari ishlab chiqish to'g'risida fikr yiritilgan. Shuningdek, Qo'qon vohasida eng ko'p tarqalgan kasalliklarning tarqalish xaritasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, Qo'qon vohasi, kasalliklar, yod tanqisligi, asab tizimi kasalliklari, omillar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются изменение климата и его влияние на здравоохранение, реформы, проводимые в нашей республике для решения этих проблем, разработка мер по предотвращению и борьбе с распространением заболеваний в республике. Также разработана карта распространения наиболее распространенных заболеваний в оазисе Коканд.

Ключевые слова: изменение климата, оазис Коканд, болезни, йододефицит, заболевания нервной системы, факторы.

Abstract: This article discusses climate change and its impact on public health, reforms being carried out in our republic to solve these problems, development of measures to prevent and combat the spread of diseases in the republic. Also, a distribution map of the most common diseases in the Kokand oasis has been developed.

Key words: climate change, Kokand oasis, diseases, iodine deficiency, nervous system diseases, factors.

Respublikamizda ham aholi salomatligiga va mamlakatning turli hududlarida ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 79- maqsadida "Aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish" hamda 80-maqsadida "Ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.06.2021 yildagi 343-sonli qarorida ham "Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi qarorda

ham 2021-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringidasturi doirasida bir qator ishlar amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Ammo erishilayotgan iqtisodiy ijtimoiy yutuqlar bilan birga ayrim hududlarda aholi o'rtasida kasalliklarning ortib borishi, ushbu hududlardagi ekologik sharoit va uni aholi salomatligiga ta'sirini baholashni taqozo etmoqda. Jumladan, Qo'qon vohasida aholi o'rtasida kasalliklarning ortib borishi asosan sanoat korxonalarining joylashuvi bilan baholanadi. Qishloq xo'jalik yerlarida esa ekologik sharoit grunt suvlari sathining ko'tarilishi va yerlarning qayta (ikkilamchi) sho'rlanishi natijasida shakllangan. Tabiiy va ijtimoiy sharoit Qo'qon vohasida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, aholi salomatlig ko'rsatkichlari bo'yicha ajralib turadi.

Yuqorida keltirilgan holatlar Qo'qon vohasida yuzaga kelgan ekologik vaziyatlar va uni inson salomatligiga ta'sirini baholash hamda bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Iqlim o'zgarib borishi inson salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatib bormoqda. Iqlim o'zgarishi sharoitida ob-havo va iqlim hodisalari tez-tez o'zgarib borishi, kuchli shamollar, juda yuqori harorat miqdorining ortib borishi, qurg'oqchil maydonlarni kengayishi hisobiga atmosferada chang moddalarini ko'payishi inson hayoti uchun nomaqbul sharoitlarni yuzaga keltiradi. Haroratning haddan tashqari yuqori bo'lishi kishilar organizimlarida qon bosimlarini ortishiga, atmosferada chang moddalarini ortib ketishi turli hil allergik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ob-havoni tez –tez o'zgarib turishi insonlarda asabiylashish va stres holatini kuchayishiga olib keladi.

Qo'qon vohasida ham iqlim o'zgarishini tahlil qilishda biz asosan inson salomatligiga ta'sirini baholab, quyidagi fikrlarga nazar tashlasak:

-vohada asosan iqlim o'zgarishi natijasida qurg'oqchil maydonlar miqdori ortib bormoqda;

-qurg'oqchil maydonlar ortishi natijasida sug'oriladigan maydonlar qisqarib boryapti;


-atmosferaga ko'tarilgan chang moddalari, chuchuk suv havzalariga qo'shilgan tuzlar miqdori ortishi va avtomobildan chiqayotgan gazlar miqdori ortib borishi natijasida vohada turli hil kasalliklar ko'payib borishiga sababchi bo'lmoqda.

Qo'qon vohasida ham iqlimni o'zgarishi asosan so'ngi XX asrning so'ngi davrlariga to'g'ri kelib o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ayniqsa, 1985 yilda Qo'qon kimyo sanoat korxonasini Qo'qon vohasining prolyuvial tekisliklariga joylashishi natijasida yer osti suvlarining ifloslanishiga katta ta'sir ko'rsatib keldi. Qo'qon shamoli esa atrofga korxonadan chiqayotgan zaharli moddalarni uchirishi natijasida vohaning sharqiy qismlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Tumanli kunlarda, qirov tushishi natijasida atmosferaga ko'tarilgan xar-xil tutun va zaharli chiqindilar yana vohaga qayta tushib o'z ta'sirini ko'rsatdi. 1989 yillarda tug'ilgan juda ko'p bolalarda nogironlik alomatlari kuchayib ketdi. Aholida ega gepatit kasalliklari avj oldi. Qo'qon shahar sog'liqni saqlash markazi xodimlari bilan suxbatlashganimizda keyingi

davrlarda vohada endogen kasalliklar, gepatit, qandli diabet, nafas yo'llari kasalliklari, asab tizimi kasalliklari ko'payib borishini aytib o'tishdi. Vohada bo'qoq kasalligi qadimdan borligi ma'lum. Bunga asosan vohadagi tuproq va suvlarda yod moddasini yetishmasligi sabab bo'lmoqda. Shuning uchun o'simir yoshlar va bolalarda bo'qoq kasalligi natijasida nafas olishlari qiyinlashadi. Ba'zi yoshlarimiz xatto farzand ko'ra olmasligiga ham sabab bo'lmoqda. Vohada asosan bo'qoq kasalligini rivoj topishiga yod moddasini yetishmasligiga sabab yer osti suvlari yer betiga yaqinligi bilan bog'lashadi. Suv bug'lanishi davomida o'zi bilan yod moddasini ham parlanishiga sababchi bo'ladi. Jahon sag'liqni saqlash tashkiloti bergan ma'lumotlarga ko'ra yer sharida 665 milliondan ko'proq odamlar qalqonsimon bez kasalligiga chalingan. 1.5 milliard kishilar esa yod tanqisligidan shikoyat qilishmoqda. Qalqonsimon bez inson organizmiga foydali tomonlari ko'p. Masalan asab tizimi faoliyatini, ovqat xazm qilish, suyak to'qimalari va modda almashinuviga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qalqonsimon bez 3 xil gormon ishlab chiqarib inson tanasini normal o'sishiga, rivojlanishiga, oshqozon-ichak kabi organizmlarning bir meyorda ishlashi uchun kerak bo'ladi. Buqoq kasalligi shu qalqonsimon bezning kattalashib borishiga sabab bo'ladi. Natijada, qalqonsimon bez asab va qon tomirlarini tanada qisqarishiga olib kelib, nafas qisilishi, ovozning birdaniga yo'qolishi va xirillashishi, bo'g'ilishlar, ko'p terlash, yutinishdagi salbiy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi.

Vohada yer usti suvlarini ifloslanishi ham o'ziga hos ekologik vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Qo'qon vohasi yer usti suvlari antropogen omil ta'sirida yildan-yilga ifloslanib bormoqda. Suvlarning ifloslanishi tabiatdagi barcha komponentlarga, shu jumladan insonlar organizmiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ichki suvlarning ifloslanishida suv tarkibidaturli hil zararli moddalar va mikroelementlarning tadrijiy ko'payib borishi bilan bog'liq. Suvlarda kimyoviy birikmalarni to'planib borishi o'z navbatida suvning fizik va kimyoviy hossalarni o'zgarishiga olib keladi. Natijada, suvning tarkibida turli hil zaharli birikmalar paydo bo'lib, organik minerallar ortadi, kislorod miqdori kamayib yuqumli kasalliklar tarqatuvchi bakteriyalar rivojlanishiga sabab bo'ladi. Qo'qon vohasida aholini va maishiy ho'jalik korhonalarini So'x daryosi suv bilan ta'minlaydi. So'x daryosining yuqori qismida joylashgan aholi Uchko'prik, O'zbekiston shuningdek Rishton tumanlarining aholilari shu kunlarga toza ichimlik suvi sifatida foydalanar edilar. Ular asosan yer ostiga hovuz va quduqlar qazishib, mustahkamlab, suv bilan to'ldirishib foydalanishar edilar. Sababi bu hududlarda prolyuvial tekisliklarda yer osti suvlar Sariqo'rg'on, O'qchi, Nursuh hududlarida 300-400 metr chuqurlikdan, hatto 500-550 metr pastda joylashgan. Yer osti suvlarini qazib olish o'ziga hos qiyinchiliklar tug'dirganligi sababli artezan quduqlari qazilmagan edi. Insonlar yer betidagi suvni toza tutishga va iflos qilmaslik uchun harakat qilishar edi. Fan texnikani rivojlanishi bu hududlarga ham artezan quduqlarini qazishga imkon berdi. Oqibarda aholi yer usti

suvlariga bo'lgan munosabatlari butunlay o'zgarib ketdi. Aholi jich yashagan va sanoat korhonalari rivojlangan hududlarda Qo'qon shahri, Uchko'prik, Dang'ara, Furqat, Bog'dod, Yangiqo'rg'on, Buvayda kabi aholi zich joylashgan hududlarda oqava



1-rasm. Qo'qon vohasida uchraydigan kasalliklar kartasi.

Izoh* Mazkur karta *Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash markazi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqildi*

Qo'qon shahar va atrofdagi tumanlar sog'liqni saqlash markazlari xodimlari bilan uchrashganimizda va olingan ma'lumotlarni tahlil qilganimizda asosan vohada iqlim o'zgarishi natijasida odamlarda qon bosimi, bo'qoq, gepatit, qandli diabet va turli xil astma, nafas yetishmasligi va odamlar terisida bahor faslida turli hil toshma kasalliklari ko'payib ketishi aniqlandi.

Global iqlim o'zgarishi butun dunyo xalqlariga, shu jumladan Qo'qon vohasida istiqomat qilayotgan kishilarga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Kuz, qish va bahor faslida ortiqcha namlik borligi sababli gripp, bel, oyoq va bo'g'im og'riqlari avj oladi. Yozda esa havo haroratini ortib ketishi natijasida atmosfera havosida changlar ko'payib ketadi. Bunga "Qo'qon" shamoli ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli chang moddasi turli xal allergek kasalliklarni avj olishiga, nafas olish tizimlariga ta'sir qilishi natijasida qon bosimini ko'tarilishiga, o'tkir yurak yetishmovchiligiga olib kelmoqda.

Umuman, Qo'qon vohasi geosistemalarida va shahar selitib landshaftlarida geoeologik vaziyatni yuzaga kelishida va rivojlanishida antropogen omilning ta'siri kuchli. Voha landshaftlarida komponentlar orasida yuzaga kelgan geoeologik vaziyatlar o'zaro integrallashib bir-biriga ta'sir ko'rsatib boradi. Ayrin joylarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqa keskinlashishi oqibatida ekologik tanglik rivojlanib boradi. Agrolandschaft va irrigatsion landshaftlar doirasida salbiy jarayonlar rivojlanadi. Bunday salbiy jarayonlar o'z navbatida tabiatning bir bo'g'ini bo'lgan insonlar salomatligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Qo'qon vohasi landshaftlarining kompleks geoeologik tahlili shuni ko'rsatadiki, zaharlangan atmosfera havosidan nafas olish, atmosferqdagi changlar, tuproqlarni nitratlar va pedsisitlar bilan ifloslanishi, yer osti va yer usti suvlarini zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi, avtomobillardan chiqyotgan turli hil gazlar inson salomatligiga turli hil salbiy ta'sir ko'rsatib kasalliklarni ko'payib ketishiga sababchi bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Абдулқосимов А., Қўзибоева О. Сўх ёйилмаси ландшафтларини микрозоналлаштириш ва мелиоратив баҳолаш. Монография 82 б Самарқанд 2009.
2. Боймирзаев К.М., Солиев И.Р., Мирзахмедов И.К. Қўқон воҳаси ландшафтларининг экологик оптималлаштириш. Монография 55 б. Наманган 2019
3. Kamalov B.A., Meliboyeva F.S. Iqlim o'zgarishining Qo'qon vohasi tuproq qoplamiga ta'siri // "Geografiya-nazariyadan amaliyotga" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Qo'qon 2024. 107-112 betlar
4. Meliboyeva F.S. Qo'qon vohasi iqlimi va undagi o'zgarishlar // "Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand 2024. 325-329 betlar
5. Meliboyeva F.S. Qo'qon vohasi landshaftlari va unga iqlim o'zgarishining ta'siri // "Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar" nomli respublika ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 93-96 b. 2025
6. Meliboyeva F.S. Iqlim o'zgarishining Qo'qon vohasi suv resurslari dinamikasiga ta'siri// Geografiya fanining dolzarb masalalari: Iqlim o'zgarishi, hududiy rivojlanish va ta'limda innovatsion yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.Qo'qon 2025.147-150 b
7. Meliboyeva F.S. Qo'qon vohasi yer osti suvlarining landshaft ekologik holatiga ta'siri//Geografiya fanining dolzarb masalalari: Iqlim o'zgarishi, hududiy rivojlanish va ta'limda innovatsion yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami.Qo'qon 2025.186-190 b
8. Рафиқов А.А Табиий географик прогнозлаштириш асослари. Тошкент 2024. Б-244